



MATNAZAR ABDULHAKIM SHE’RIYATIDA XALQ OG‘ZAKI IJODIGA XOS OBRAZ VA RAMZLAR TALQINI

Kumush Abdusalomova,
ToshDO‘TAU 3-bosqich mustaqil izlanuvchisi

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15207173>

Annotatsiya: Ushbu maqolada taniqli o‘zbek shoiri Matnazar Abdulhakim she’riyatiga xalq og‘zaki ijodining ta’siri masalasi o‘rganilgan. Unda ko‘plab misollar asosida M.Abdulhakim she’riyatining folklor bilan mushtarak jihatlari o‘rganiladi. Shu asosda shoir mahoratining o‘ziga xos qirralari tadqiq etiladi. Muallif kuzatishlari natijasida shoir ijodidagi an’ana va novatorlik masalasi bo‘yicha muayyan xulosalarini ifoda etadi.

Kalit so‘zlar: She’r, shoir, misra, lirik qahramon, folklor, an’ana, o‘ziga xoslik, adabiy ta’sir, mushtaraklik, badiiy mahorat.

Xalq og‘zaki ijodiyoti namunalariga xos samimiyatning ochiq ifodasi, soddalik va tabiiy ohangdorlik yoki ranginlikdan ilhomlanmagan san’atkorini topish mushkul vazifa. Shuning uchun og‘zaki ijod barcha zamon va davrlarda ham yozma adabiyotning rivojini belgilaydigan bosh manbalardan biri bo‘lib kelgan va doimo shunday bo‘lib qoladi. Bu fikr tadqiq etayotganimiz Matnazar Abdulhakim she’riyatiga ham taalluqlidir.

“Folklor an’analari deganda, xalq og‘zaki ijodiga xos ifoda uslubining, badiiy shakl tiplari va tasvir vositalarining, epik motiv va obrazlarning, marosim hamda urf-odatlariga xos tushuncha va qarashlarning faqat folklor asarlarida saqlanib qolishi, ularni poetik ifodalashning davom ettirilishi anglashiladi” [Sharipova, 2011; 56].

Matnazar Abdulhakim ertak, rivoyat va xalq dostonlarida uchraydigan obraz, unsur va ifoda uslublarini ijodiy o‘zlashtiradi. Xususan, quyidagi to‘rtlikdagi barcha obrazlar ertak va xalq dostonlaridan o‘sib chiqqani seziladi:

Shahzodaga tekkan alvasti

Iztirobim, bas-e, taltaydi.

Ishonmayman men unga asti,

U **yosuman** yomon aldaydi.

Ma’lumki, *shahzoda* va *alvasti* obrazlari o‘zbek xalq ertaklarida ko‘plab uchraydi. O‘zbek xalq dostonlarida *yosuman kampir* yovuzlik ramzi hisoblanadi.

Shu bilan birgalikda, ertaklarda uchraydigan *yalmog‘iz obrazi* ham shoir she’rlarida o‘ziga xos tarzda ishlatilgan. (*Mening-chi, mening ne aybim bor edi,*



Yalmog‘izsan, muhabbat, yalmog‘iz...) Ushbu o‘rinda yalmog‘iz to‘g‘ridan-to‘g‘ri obraz sifatida emas, balki muhabbatga tashbex sifatida ishlatilmoqda.

Xalq og‘zaki ijodi namunalarida, ertak va afsonalarda ajdaho xalqni notinch qilib, osuda hayotiga xalal berishi, ammo odamlar undan qutulish chorasini topa olmay uzoq vaqt azob-uqubat chekishi va afsonaviy botir tashrifidan keyin *ajdaho* zulmidan xalos bo‘lishlari ko‘p uchraydi. Ajdaho xilqatidagi ochofatlik, yuholik va yeb to‘ymaslik nafs tabiati bilan o‘zaro uyg‘unlik kasb etadi:

Ko‘rinadi tandirning og‘zi

Ajdahoning komiga o‘xshab.

Tinim bilmay, otar ustimdan

Ajdahodek bu firoq xanda.

Judolik yurakxo‘r, yovuz ajdaho

Mavjlandi ishtaha jirkanch qonida.

Rashking — bir chuvalchang, bir ilon — mayda,

Mening rashkim esa ajdaho.

Quyidagi satrlarda ham ertak va afsonalarda ko‘p uchraydigan *qanotli tulporlar* obrazi uchraydi:

Qanotli tulporlar eltadir senga,

Ey sarviqomat anduh, qoshi hilol dard.

Shuningdek, Matnazar Abdulhakim she‘riyatida ertak, afsona, rivoyat va xalq dostonlarida uchraydigan qahramonlar ham faol ishtirok etadi:

1. Qaysi **Xotam**, qaysi Javonmard, Qanday g‘aniy. Qayday fidoyi.
2. Unga **Aldar ko‘sa** topqirlik‘i-yu Temurning oyog‘i qolgandir meros.
3. Biz esa g‘oyibona gullar qo‘yamiz **Xo‘ja Nasriddinning** poyiga.
4. Bir-birovni shunday sevamizdirki, Bizga **Tohir-Zuhro** havas qiladi.
5. So‘ng yo‘llarda evril **G‘irko‘kka**, Bo‘ri hamla qilsa, bo‘lg‘il sher.

Yuqoridagilardan tashqari, Matnazar Abdulhakim ertak, rivoyat va xalq dostonlarida uchraydigan unsurlar va ifoda uslublarini ham faol qo‘llaydi. Misol uchun, quyidagi to‘rtlikka e‘tibor qarataylik:

Yonib keldi. Yoqdi. So‘ng ketdi

Tashrifidan pushmon yeganim.

Yomon sog‘intirdi o‘zini

Bir bor ekan, bir yo‘q ekanim.

Ma‘lumki, ertaklar asosan “*Bir bor ekan, bir yo‘q ekan...*” tarzidagi boshlanma bilan boshlanadi. Ushbu o‘rinda oshiq o‘z yorining bir ko‘rinib, tag‘in yo‘qolib



qolishiga ishora qilib, yorini “*Bir bor ekan, bir yo‘q ekanim*” deb ataydi. Ertaklar xayolot mahsuli, undagi qahramonlar va voqealar xayolda ro‘y beradi. Shoir o‘z yorini vasf etishda ertaklarga xos ifodani tanlashining sababi balki u oshiq bo‘lgan yor ham aslida xayoliy bir malakdir. Shoirning tabiatga atalgan she‘rida (*Senda – yaxshilikka yaxshilik mudom, Senda – yomonlikka yomonlik*) ham ertaklardagi “*Yaxshilikka faqat yaxshilik qaytadi*” xulosasi beriladi.

Misol uchun shoirning yana bir she‘rida quyidagi satrlarga duch kelamiz:

Endi meni mendan izlamang,
O‘z-o‘zimga bo‘lmayman maskan.
Xayoliga ketdim bosh olib,
Ketdim endi **borsakelmasga**.

O‘zbek xalq ertaklarida yo‘llardan biri *borsakelmasga* olib borishi haqidagi tasvirni ko‘p bora o‘qiganmiz. Lirik qahramon yorning xayoliga bosh olib ketarkan, o‘zining borsakelmasga ketayotganini ta‘kidlaydi. Demak, oshiqni yorning xayoli bir lahza ham tinch qo‘ymaydi. Matnazar Abdulhakim ertaklardagi mazkur unsur orqali fikrni ta‘sirchan ifodalamoqda.

Shoir “O‘tdi” radifli g‘azalida ham ertak va dostonlardagi ifoda uslubidan foydalanadi:

Pushaymon etdimi, qayrildi bir bor,
Misoli bir qoshiq qonimdan o‘tdi.

Ertak va dostonlarda shohdan afsus va nadomat bilan uzr tilash, avf so‘rash “Bir qoshiq qonimdan o‘ting” tarzida ifodalanadi. Shoir mana shu uslubni “o‘g‘irlyaydi”. Bir qayrilib qaragan dildorini “Bir qoshiq qonidan o‘tgan shohga” qiyoslaydi.

Yana bir muhim jihat shundan iboratki, shoir ertak, rivoyat va xalq dostonlaridagi voqea-hodisalarga ishora qilib, fikrni ta‘sirchan ifodalash yo‘lidan ham boradi.

Quyidagi satrlarni hech ikkilanmay ertakdagi voqeaga bog‘lash mumkin:

Urug‘ingni qaysi bir **laylak**
Tashlab ketdi, aytgil, atirgul.

Ma‘lumki, “Oltin tarvuz” ertagida *laylak* o‘zini davolagan dehqonga tarvuz urug‘ini tashlab ketadi. Aslida hayotda ham qushlarning o‘simlik urug‘ini tashishda ishtirok etishi bor gap. Ammo shoir qushlar ichidan aynan *laylak obrazini* tanlagani ushbu satrlarni ertaklarga bog‘lashimizga to‘la asos bo‘ladi.

Yana misol tariqasida quyidagi satrlarni olaylik:



Lekin men **quduqqa so‘ylamadim sir,**

Seni aytdim faqat jim-jit harflarga.

Xalq dostonlari va ertaklarida quduqqa sir aytish holatlari uchraydi. Shoir aynan shunga ishora qilmoqda. Lirik qahramon shunday holatdagi, yuragidagi sirni, ya’ni tuyg‘u yoki hisni quduqqa emas, qalam orqali harflarga so‘ylamoqda. Quduqqa so‘ylangan sirlar kun kelib elga ovoza bo‘ladi. Chunki shu quduqdan o‘sib chiqqan qamishlar nayga aylanib, sirni “sotib” qo‘yadilar. Harflarga aytilgan, to‘kib solingan sirlarni ham shu “taqdir” kutmoqda. Harflar orqali tuzilgan so‘zlarni o‘qigan kitobxon borki, shoirning dardlarini, kechinmalarini anglab oladi. Matnazar Abdulhakim mana shunday inja tuyg‘ularni xalq og‘zaki ijodiga tayanib, yuqori badiiyatda ifodalab beradi.

Ijodkorning bisotida voqeyiy she‘rlar ham keng ko‘lamni tashkil etadi. “Darsdan so‘ng”, “Arz”, “Sarupo”, “Otajon og‘a diydori” kabilar ularning eng go‘zal namunalari. Misol uchun “Darsdan so‘ng” she‘rida quyidagi band she‘rdagi voqeani yakunlab beradi:

Uvvos fig‘on tutdi qishloqni tongda,
Zamin aza ochdi, zamon yig‘ladi.
Daftar topshirmagan yetti o‘quvchi
Hammadan ham yomon yig‘ladi.

Ammo she‘r shu bilan tugamaydi. Ijodkorning asl maqsadi voqeadan so‘ng ochiqilanadi. Xuddi ertaklarda bo‘lgani kabi shoir voqeadan so‘ng “Qissadan hissa”ni keltiradi. Shoirning barcha voqeyiy she‘rlari shu tartibda davom etadi. Yakunni aytish bevosita ertaklarni esga soladi.

Shoirning lirik merosida xalq qo‘shiqlari, termalari shakli va ohangiga yaqin misralar va she‘rlar ko‘plab topiladi. Misol uchun quyidagi bandni olaylik:

Dunyo shunday, shamollar g‘uv-g‘uvlaydi,
Dunyo shunday, qashqirlar uv-uvlaydi.
Dunyo shunday, qumrilar qu-quvlaydi,
Dunyo shunday, qarg‘alar qog‘-qog‘lar ko‘p.

Shuningdek, ijodkor bir she‘rini “Qo‘shiq” deb nomlaydi va qoraqalpoq xalq qo‘shig‘idan parchani epigraf sifatida keltiradi (*Baland chiqib nazar solsam har yoqqa, / Yor qorasi ko‘rinmaydi ko‘zimga*). She‘rning ohangi ham qo‘shiqqa mos ravishda davom etadi.

Matnazar Abdulhakimning she‘rlarida o‘ziga xos bosiqlik borligi seziladi. Ammo xalq qo‘shiqlari va termalariga hamohang quyma satrlari ham yetarli.



Shoirning Xorazm shevasida bitilgan *“Bir quchoq gul”* turkumi va *“Xorazmcha termalar”* deb nomlangan to‘rtliklari ham borki, shoir ijodiga xalq og‘zaki ijodining ta‘sirini o‘rganar ekanmiz, ushbu jihatni chetlab o‘tolmaymiz. Ijodkor *“Bir quchoq gul”* turkumi so‘zboshisida shunday deydi: *“Daryolar borib quyilmasa, dengizlar qurib qoladi. Xuddi shunday, shevalarimizdan, lahjalarimizdan jonbaxsh jaranglar, so‘zlar, yangi-yangi ifoda imkoniyatlari nasib bo‘lib turmasa, har qanday “adabiy til”, jumladan o‘zbek adabiy tili ham inqirozga yuz tutish xavfidan emin bo‘la olmaydi”.* *“Xorazmcha termalar”* deb nomlangan to‘rtliklar ichida xalq qo‘shiqclariga hamohang quyidagi quyma satrlar bor:

Rohmon qolib, sheytonino yon bardi.

Dil qushimo zaharlangan don bardi.

Shular bilan bir qatorda, shoirning bevosita rivoyat va hikoyatlar ta‘sirida yozilgan she‘rlari ham borki, ularni ham eslatib o‘tmay ilojimiz yo‘q. *“Tovon” (Eshitdimki, Eron yoqlarda/Yolg‘on so‘ylab, o‘trik deganlar/Og‘izni suv bilan uch marta/Chayib, halol qilar ekanlar), “Ayiq” (Qaysidir bir yurtda qadim zamonlar/Shunday oliy jazo ko‘rilgan afzal./Taxtaga chandilgan barcha yomonlar./So‘ngra tovonlarga surkalgan asal.), “Ayozkal’a hikoyati” (Bunyod qilmoq bo‘ldi Ayozxon qal’a,/Tog‘ sathidan tanlab osmono‘par joy./Yaqin yerdagi soztuproq maydondan/Keltirildi ming-ming arobada loy.)* she‘rlari shular jumlasidandir.

Matnazar Abdulhakimning lirik merosida alohida o‘rin tutadigan *“Ko‘prik”* va *“Quduq”* dostonlarida ham xalq og‘zaki ijodining ta‘siri sezilib turadi. Buni *“Ko‘prik”* dostonidagi boblar nomi *“Ikki rivoyat”, “Hikmat”, “Rivoyat”* deb nomlanishida hamda *“Daryo – men, daryo – sen, daryo – u”* deb nomlanuvchi IX bobga *“Toshmadingmi dali daryo?”* Xorazm xalq qo‘shig‘ining epigraf sifatida tanlanganidan ham bilishimiz mumkin. Shu bilan birga, *“Quduq”* dostoni muqaddimasida *“Ming machit, ming machitdan yuz gechik, yuz gechikdan bir ichik”* maqolining ishlatilishidan hamda dostonga epigraf sifatida olinishidan ham bilsak bo‘ladi.

Aslida, haqiqiy ijodkor o‘zidan oldingi an‘anani inkor etmagan holda, mutlaqo yangi mezon va yondashuvlarni adabiyotga olib kiradi. Bu esa badiiy adabiyot va adabiy jarayon mazmunini ham boyitadi. Xalq ijodiyoti tamoyillari, qat‘iy an‘anaviy shakllari, turlari va qisman ba‘zi obrazlari keyingi badiiy tafakkur tarziga ta‘sir ko‘rsatdi. Matal, maqol, ertak, masal, qo‘shiq janridagi asarlarda yaxshilikka intilish, yomonlikning jazosi muqarrar ekani, Haq va haqiqatga targ‘ib, tabiat va jonivorlarga

“O‘ZBEK FILOLOGIYASI: MUAMMO VA YECHIMLAR” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani



shafqatli bo‘lish g‘oyalari o‘z ifodasini topgan. Bu kabi ijtimoiy va estetik ideal yozma adabiyot namunalarida turli janr va obrazlarda namoyon bo‘ldi. Xalq og‘zaki ijodi namunalariga xos mavzular, ertak, doston, qo‘shiq va afsonalardagi motiv hamda syujetlar, eng avvalo, muayyan millat psixologiyasi, tafakkur tarzi va mentalitetini ifodalovchi vosita hamdir. Demak, qadimiy o‘zanlardan, teran tomirlardan ilhomlanish barcha zamonaviy ijodkorlarga xos xususiyatlardan. Bu holat u yoki bu ijodkor asarlari mazmunini tashkil etmasligi mumkin, lekin uning elementlari yorqin namoyon bo‘lgan she‘r, hikoya va qissalar mavjud. Ertak yoki dostonga xos syujet bo‘laklari, sintaktik konstruksiyalar shular jumlasidandir. Ijodiy salohiyat va mashaqqatli mehnat, matn ustida tinimsiz izlanishlar yuksak asarlarning tug‘ilishiga zamin tayyorlaydi. Shoir yoki yozuvchi dastlab, xalq og‘zaki ijodi, keyinchalik mumtoz so‘z san‘ati bilan chuqur tanishuvi natijasida o‘z uslubi va yo‘lini topa boradi.

Adabiyotlar:

1. Matnazar Abdulhakim. Javzo tashrifi. – T.: Sharq, 2008
2. Matnazar Abdulhakim. Mangulik jamoli. – Xiva: Xorazm Ma‘mun Akademiyasi nashriyoti, 2009
3. Matnazar Abdulhakim. Fasllar qo‘shig‘i. – T.: G‘afur G‘ulom, 1986
4. Belinskiy. V.G. Adabiy orzular. Maqolalar. – Toshkent: “Adabiyot va san‘at nashriyoti”, 1977.
5. Matnazar Abdulhakim. Oydinlik. – Toshkent: “Yozuvchi”, 1977.
6. Normatov U. Qalb inqilobi. – Toshkent: “Adabiyot va san‘at nashriyoti”, 1986.